

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Budjet tashkilotlarida ish haqidan ushlanmalar va ichki auditni takomillashtirish

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani

Bank-Moliya akademiyasi

1-bosqich magistratura tinglovchisi

Haydarov Ozodjon Po'latjonovich

Annotatsiya: Maqolada Budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatining nazariy xamda amaliy jihatlari va byudjet tashkilotida ichki auditni samarali tashkil etish yo'llari, ichki auditni maqsadi va vazifalari, prinsiplari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: byudjet tashkiloti, ichki audit, audit usullari, samaradorlik, auditor, sifat, baholash, intizomli èndoshuv, risk, aktiv, davlat mulki.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты деятельности внутреннего аудита в бюджетных организациях, пути эффективной организации внутреннего аудита в бюджетных организациях, цели и задачи, принципы внутреннего аудита.

Ключевые слова: бюджетная организация, внутренний аудит, методы аудита, эффективность, аудитор, качество, оценка, дисциплинарное взыскание, риск, актив, государственное имущество.

Abstract: The article discusses the theoretical and practical aspects of internal audit activities in budgetary organizations, ways of effectively organizing internal audit in budgetary organizations, goals and objectives, principles of internal audit.

Key words: budgetary organization, internal audit, audit methods, efficiency, auditor, quality, assessment, disciplinary action, risk, asset, state property.

Iqtisodiyotning rivojlanishi va aholi farovonligini ta'minlashda faqat xususiy sektorni emas, balki budjet tashkilotlari ham muhim ahamiyatga ega

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqib, mamlakat iqtisodiyotini muhim qismini tashkil etadigan budget mablag‘larining oqilona va rejali sarflanishi yuzasidan byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil qilish nomuvofiqliklarni va maqsadsiz xarajatlarni qisqartirishiga yordam beradi. Budget tashkilotlarida ichki audit to‘g‘risida so‘z yuritishdan oldin «audit» so‘zining lug‘aviy ma’nosini keltirib o’tsak. Umuman olganda, audit atamasi lotin tilidan olingan bo’lib, «eshituvchi», «eshitmoq» degan ma’noni anglatadi.

Byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati – tashkilotning faoliyatini me’yoriy hujjatlar asosida ichki hujjatlarni to‘liqligi, qonunga muvofiqligi, tuzilgan hisobotlarning ishonchligini nazorat qiluvchi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, byudjet mablag‘larini samarali ishlatalishini baholash va uni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beruvchi hamda byudjet jarayonini shaffofligini yanada oshirishni ta’minlovchi faoliyatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2018 yildagi PQ-3946 sonli “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga asosan mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta’minalashga imkon yaratdi.

Ichki audit o‘tkazishning samarali tizimini ishlab chiqish jamiyatdagi mavjud qonunlar asosida amalga oshiriladi. Tashkilotni boshqaruvchi xodimlari va ichki auditorlar ichki nazorat tizimining samaradorligini kuzatish va baholashda qaror qabul qiladilar. Ichki audit xizmatini tuzilishidan qat’iy nazar har qanday turdagи korxona va tashkilotga qo‘llash mumkin. Faqat byudjet tashkilotlarida ichki audit o‘z faoliyat usullarini o‘zgartirishni taqozo qiladi va samarali ichki nazoratni tashkil etish uchun o‘z oldiga bir nechta talablarni qo‘yadi.

Avvalo budget tashkilotlarida ichki audit xizmatini samarali tashkil etish

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

uchun uning maqsadini aniq belgilab olishimiz lozim. Budget tashkilotlarida ichki auditni samarali tashkil etish uchun quyidagi maqsadlarni belgilab olishimiz mumkin:

- risklarni kamaytirishda minimal qiymatni ta'minlash;
- tashkilotning samaradorligini oshirish;
- tashkilot aktivlarini ishlatilishini va zararlardan himoya qilinishini ta'minlash;
- ichki va tashqi moliyaviy hisobotlarni ishonchliligin ta'minlash;
- davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish;
- budget mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlash;
- qonun va qoidalarga rioya qilinishini ta'minlash.

Ushbu maqsadlardan ichki auditning vazifalari shakllanadi. Vazifalarning aniqligi, to‘g‘ri yo‘nalishda ishlab chiqilganligi va bugungi kundagi talablarga javob berishi ishning samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biridir. Ichki audit funksiyasi boshqaruvni operatsiyalar, hisobot va muvofiqlik bo‘yicha ichki nazoratni takomillashtirishga èrdam beradi. Ko‘pgina izlanishlar va moliyaviy hisobotlarni ichki nazorat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganib chiqsa-da, operatsiyalar va muvofiqlikni nazorat qilish borasida juda kam narsa ma’lum.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida ichki auditning asosiy vazifalari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ulardan chetga chiqmagan holda yanada kengroq tartibda ishlab chiqilgan ichki auditoring quyidagi vazifalarini keltirib o‘tishni lozim topdik: - tashkilotda yuzaga keladigan barcha jaraènlarni mustaqil tahlil qilish va baholash;

- moliyaviy hisobotlarni auditini amalga oshirish, ishonchliligin tahlil qilish va o‘z vaqtida bajarilishini baholash;
- soliqqa tortiladigan bazani minimallashtirish; - xodimlarni boshqarishda tashkilot rahbariyatiga èrdam berish;
- buxgalteriya jaraènlarini birlashtirish va standartlashtirishni tashkil qilish;
- budget tashkiloti uchun ichki auditni amalga oshirishning bir yillik rejasini tuzib chiqish va tasdiqlatish;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- tasdiqlangan rejaga muvofiq tashkilotning barcha bo‘limlarida doimiy tekshiruvlar o‘tkazib borish;
- smeta xarajatlarini bajarilishini nazorat qilish;
- tashkilotning aktivlarini xavfsizligini va samaradorligini nazorat qilish;
- tashkilotdagi amalga oshiriladigan shartnomalarini to‘liq rasmiylashtirilishi va ularning bajarilishini bayonnomalarda to‘liq aks ettirilishini nazorat qilish;
- mablag‘larni maqsadli sarflanishini nazorat qilib borish;
- tashkilotning daromad va xarajatlarini doimiy nazorat qilib borish;
- tashkilotning debitor va kreditor qarzdorligi yuzasidan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish;
- qarzlarni tahlil qilish va qarzdorlikni kamaytirish bo‘yicha operativ ko‘rsatmalar berish;
- shartnomalar tuzishda xavf darajasini kamaytirish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni kamaytiradigan tavsiyalar;
- yangi loyihalarni amalga oshirishda ichki tavakkalchiliklarni aniqlash va tahlil qilish;
- tashkilotni tashqi nazoratga tayyorlash;
- har oy uchun ichki hisobot va xulosalar tayेrlash.

Vazifalarni aniq belgilab olish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ichki audit xizmatini samarali tashkil qilishning asosiy shartlaridan biri uni amalga oshirishdan oldin barcha maqsad va vazifalari bilan bir qatorda audit qilish usullari, audit o‘tkazish rejasи, dasturi, ketmaketligi, prinsiplari aniq belgilab olinadi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrda PQ- 3946-sonli “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori. www.lex.uz 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagи PQ- 3231-sonli “Ta’lim va tibbiет muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz

3. “International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing”, Institute of Internal Auditors, 2004, page 12 <https://www.tadqiqotlar.uz>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

na.theiia.org/standards.

4. Stat'ya: A.Guseev "Polojenie o vnutrennem finansovim kontrole" Jurnal: "Silovye ministerstva i vedomstva: buxgalterskiy uchët i nalogoooblojeniya" № 1/2017 g.www.taxpravo.ru/analitika/statya.